

Uzbekistan Airways'da shaxmat turniri

2025 29 Oktabr

Uzbekistan Airways bosh ofisida aviakompaniya xodimlari o'rtasida shaxmat turniri bo'lib o'tdi. Musobaqalar olimpiya tizimi bo'yicha o'tkazilib, unda ishtirokchilar yuksak mahorat, sinchkovlik va strategik fikrlash qobiliyatini namoyish etdilar.

Turnir natijalariga ko'ra, sovrinli o'rinlar quyidagicha taqsimlandi:

- Birinchi o'rin – Dilshod Gadayev, Tijorat departamenti jadval bo'limi
- Ikkinchi o'rin – Davlet Rahimov, Xaridlar departamenti
- Uchinchi o'rin – Xurshid Akbarov, Xaridlar departamenti

G'oliblar aviakompaniyaning diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi. Biz hamkasblarimizning intellektual yutuqlari bilan faxrlanamiz va barcha ishtirokchilarga faol ishtiroklari uchun minnatdorchilik bildiramiz!





